

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Xorazm Ma‘mun akademiyasi



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI



Xiva
4-may 2023-yil

**“Beruniy va Ibn Sino – Ikkinchi ming yillikning taqdirini o‘zgartirgan daholar:
Ma‘mun akademiyasining jahon fani taraqqiyotida tutgan o‘rni” mavzusidagi**

XALQARO ILMIIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

**Xiva
4-may 2023-yil**

Mazkur anjuman O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyuldagi “Turkiy davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlikni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PK-338-sonli Qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida Xorazm Ma‘mun akademiyasida o‘tkazilmoqda. Anjuman ilmiy to‘plamida tadqiqotchi olimlar, talabalar, mazkur allomalar hayoti, faoliyati, ilmiy merosiga qiziquvchilarning ilmiy maqolalari jamlangan

Mas‘ul muharrir:
R.B.Mahmudov – filologiya fanlari doktori, dotsent

Xalqaro konerensiya to‘plami Xorazm Ma‘mun akademiyasi Ilmiy kengashining 2023-yil 28-apreldagi 4-sonli yig‘ilishida nashrga tavsiya etilgan.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas‘uldirlar.

© Xorazm Ma‘mun akademiyasi, 2023.

KIRISH SO‘ZI

O‘zbek xalqi azal-azaldan bunyodkorlikka, ilm-fan rivojiga, xalq orasida ma’naviyat va ma’rifat yuksalishiga alohida e’tibor qaratib kelgan. Ajdodlarimiz bu borada tinimsiz intilganlar, yangiliklar yaratganlar va ularni kelajak avlodga bus-butun yetkazish harakatida bo‘lganlar.

Ma’lumki, IX-XI asrlarda yurtimizda taraqqiyotning yangi davri boshlanib, davlat boshqaruvi va siyosatdagi yangiliklar ilm-fan kishilarini ezgu g‘oyalar tevaragida birlashtirdi. Natijada matematika, astronomiya, kimyo, tibbiyot, huquq, geografiya, geodeziya, mineralogiya singari fanlar rivojlanib, Birinchi Renessansga asos bo‘ldi. Bunda, ayniqsa, o‘z bag‘riga daho mutafakkirlarni to‘plagan oliy ilmiy dargoh – Xorazm Ma’mun akademiyasi ham muhim rol o‘ynadi.

Xorazm Ma’mun akademiyasi olimlari Yunoniston, Yaqin va O‘rta Sharq, Markaziy Osiyo va Hindiston ilm-fan yutuqlarini ijodiy, tanqidiy o‘rganib, uni yanada yuksak bosqichga ko‘targanlar. Ularning ilmiy faoliyati, asarlari tufayli Qadimgi Xorazm badiiy san’ati, adabiyoti, astronomiyasi, matematikasi, geodeziya va geografiyasi, kartografiyasi, sug‘orish madaniyati yutuqlari jahon tamadduni xazinasiga kirdi va butun insoniyat manfaatlariga xizmat qila boshladi.

Ushbu dargohda Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Abu Ali ibn Sino (980-1037), Abu Mansur Ibn Iroq (958-1036), Abu Sahl Masihiy (970-1042), Abu al-Hayr Ibn Hammor (942-1018), Abu Mansur as-Saolibiy (961-1038), Abu Ali Ibn Miskavayh, (vafoti 1030), Abdulhakim Muhammad ibn Abdulmalik as-Solih, Al-Xorajiy, al-Hamdamiy, Abu Abdulloh al-Biyan al-Naysaburiy, Mahmud Hamid Ibn Xidr al-Xo‘jandiy kabi ko‘plab o‘z zamonasining allomalari, dunyo ilm-fani rivojiga katta hissa qo‘shgan yetuk olimlar faoliyat yuritdi. Bunday muhitni shakllantirishda faqat xorazmshoh emas, uning yaqin ayonlari ham ishtirok etganlar. Jumladan, Ali ibn al-Ma‘munning (997-1009-y.) vaziri Abu Husayn Ahmad as-Sahliy ma’rifatparvar, falsafiy tafakkur egasi bo‘lgan. O‘sha davr adiblari, xususan, as-Saolibiy uni chuqur ehtirom bilan tilga oladi. Ibn Sino ham Xorazmda yashagan vaqtida yozilgan kimyoga oid “Risolat al-iksir” (“Iksir (eliksir) haqida risola”)sini va sog‘liqni saqlashga doir kichik bir asarini shu vazirga bag‘ishlagan. So‘nggi Ma‘muniy xorazmshoh Ma‘mun ibn al-Ma‘munning (1010-1017-y.) yaqin maslahatchisi esa buyuk olim Abu Rayhon al-Beruniy bo‘lgan.

Xorazm Ma‘mun akademiyasidagi ilmiy faoliyatda, eng avvalo, aniq fanlar ustuvorligini ko‘rish mumkin. Chunki bu yerdagi peshqadam olimlarning ilmiy qiziqishlari markazida matematika, astronomiya va ularga yo‘ldosh sohalar turardi. Bu yo‘nalishdagi izlanishlarga Abu Nasr Mansur ibn Ali ibn Iroq al-Ja‘diy rahbarlik qilgan. U o‘z davrining yetuk olimi bo‘lib, fanga bir qancha yangiliklar olib kirgan. Jumladan, ekliptikaning osmon ekvatori tekisligiga og‘ish burchagini aniqlashning yangi usulini taklif etgan. Birinchilardan bo‘lib nafaqat tekislikdagi, balki fazoviy (sferik) uchburchaklar uchun ham sinuslar teoremasini isbotlagan olimdir. Uning nazariy jihatdan asoslangan astronomik jadvallari o‘rta asrlarda Abu Rayhon al-Beruniy va Nosiriddin at-Tusiy (1202-1274-y.), shuningdek, XX asr G‘arb fan tarixchilari tomonidan yuqori baholangan. Ibn Iroqning yaqin do‘sti va shogirdi bo‘lgan Beruniy Urganchda yashagan davrida (1004-1017-y.) astronomik kuzatuvlar olib borib, Quyoshning ekliptika bo‘ylab harakati, Oy va boshqa sayyoralarning harakatlariga alohida e’tibor qaratadi va natijada al-Xorazmiy va Habash al-Hosiblarning “Zij”lariga tuzatishlar va nazariy qo‘shimchalar kiritadi. Shu yerda alloma turar joylar koordinatalari va ular orasidagi masofalarni aniq ko‘rsatish uchun diametri 750 santimetrli Yerning sferik globusini yasagan. Mazkur globus yordamida olim fanda birinchi bo‘lib triangulyatsiya usulida, ya’ni sfera ustida uchburchaklarni yasash bilan G‘aznadan Makkagacha bo‘lgan optimal yo‘lni aniq hisoblab chiqadi. Bunda Beruniy triangulyatsiya burchaklaridagi shaharlarning sferik koordinatlarini berib, shaharlarning uzunlama va kenglamalarini topish uchun formulalar ishlab chiqadi. Olimning shaharlar geografik koordinatlarini aniqlash usuli keyinchalik Mirzo Ulug‘bek va undan keyingi olimlar tomonidan davom ettirilgan.

Xorazmda Ibn Sino ham Beruniy va Ibn Iroqlar yordamida aniq fanlar bo‘yicha bilimlarini oshiradi va keyinchalik shu bilimlari asosida Isfahonda rasadxona qurdirib, astronomik kuzatishlar ham olib borgan.

Buxoroda muvaffaqiyatli boshlagan tibbiy faoliyatini takomillashtirish maqsadida Ibn Sino Xorazmda Abu Sahl Masihiyning tib bo‘yicha ma’ruzalarini tinglaydi va o‘zining tabobat bo‘yicha shoh asari – “Tib qonunlari” uchun material to‘playdi. Shuningdek, o‘ziga ko‘rsatilgan iltifotlarga minnatdorlik sifatida vazir as-Sahliyga bag‘ishlab kimyoga oid va sog‘liqni saqlashga doir ikkita kichik asar yozgan. Shulardan ko‘rinadiki, Ibn Sinoning Xorazmdagi ilmiy faoliyati ko‘pqirrali bo‘lgan.

Shu sababli ham bugungi kunda yurtimizda ushbu dargohda faoliyat yuritgan allomalarning ilmiy merosini o'rganish, targ'ib qilish, yoshlarimizni ayni shu allomalarimiz kabi ilmga chanqoqlik ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta'lim berish bo'yicha ikkinchi Butunjahon konferensiyasi ochilish marosimidagi nutqida bu haqda to'xtalib, jumladan, shunday dedilar: **“Diyorimizdan yetishib chiqqan atoqli allomalar, algebra fani va algoritm tushunchasiga asos solgan al-Xorazmiy, mineralogiya fanining tamal toshini qo'ygan al-Beruniy, dunyoda Avitsenna nomi bilan tanilgan mashhur tibbiyot olimi Ibn Sino, 1018 ta yulduzning koordinatlarini va harakatini aniq belgilab bergan buyuk astronom Mirzo Ulug'bek, Nil daryosining sathini o'lchovchi noyob uskuna yaratgan alloma Ahmad Farg'oniy kabi ulug'ajdodlarimiz o'zlarining bebaho asarlari, ilmiy va ijodiy kashfiyotlari bilan o'rta asrlardagi Birinchi va Ikkinchi Sharq Renessansi rivojiga ulkan hissa qo'shganlar”**.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil yanvar oyida Xorazm viloyatiga, xususan, Xorazm Ma'mun akademiyasiga tashrifi davomida bergan topshiriq va ko'rsatmalari ushbu akademiya faoliyatida tub burilish yasadi. Ya'ni ilm dargohi Davlat byudjetidan moliyalashtirish tizimiga o'tkazilib, moddiy-texnika bazasi mustahkamlandi, olimlar uchun barcha shart-sharoitlar muhayyo qilindi. Bu esa ota-bobolarimiz qoldirgan bebaho ilmiy merosni asrab-avaylash barobarida, ilmiy yangilik va kashfiyotlar qilish, innovatsiyalar yaratish, yoshlarni ilmga jalb etib, iqtidorli, dunyo tan oladigan yangi avlod olimlarini yetishtirishga, buyuk ajdodlarimiz merosini yanada chuqur o'rganish va tadqiq qilishga katta rag'bat bo'ldi.

Xususan, yurtboshimizning 2022-yil 29-iyuldagi “Turkiy davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlikni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PK-338-sonli Qarori asosida ushbu **“Beruniy va Ibn Sino – Ikkinchi ming yillikning taqdirini o'zgartirgan daholar: Ma'mun akademiyasining jahon fani taraqqiyotida tutgan o'rni”** mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiyani tashkil qilinishi, shuningdek, Prezidentimizning 2022-yil 25-avgustdagi “Buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050-yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash to'g'risida”dagi PQ-361-sonli Qarori asosida keng ko'lamli ishlar olib borilishi shular jumlasidandir.

Ma'mun akademiyasi qadimdan yurtimiz allomalari uchun beshik bo'lib kelgan bo'lsa, bugungi kunda ham o'nlab zahmatkash olimlarni o'z bag'rida jamlagan ilm dargohidir. Bugun buyuk ajdodlarimiz uchun munosib avlod bo'lishga intilayotgan Xorazm Ma'mun akademiyasi olimlari yurtimiz ilm-fani rivojiga va, aytishimiz mumkinki, uchinchi Renessans poydevorini qurishga o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, Xorazm viloyati hokimligi va boshqa mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda Xorazm Ma'mun akademiyasi ushbu xalqaro ilmiy konferensiyani tashkil qilishda sa'y-harakat qildilar. Mazkur to'plam ana shu xalqaro konferensiya materiallarini o'zida jamlagan. To'plamda Beruniy va Ibn Sino haqida yangi ma'lumotlarga ega ilmiy maqolalarning mavjudligi e'tiborga molikdir.

Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va boshqa barcha buyuk allomalarimiz ilmiy merosini o'rganish, targ'ib qilish, yosh avlodga singdirishda jonbozlik qilayotgan har bir tadqiqotchi, olim, qiziquvchilarga ilmiy faoliyatida muvaffaqiyat tilayman.

**Bahrom Abduhalimov,
O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi
vitse-prezidenti,
tarix fanlari doktori, professor**

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar I. – Toshkent. 1968.
2. Ebu Reyhan Muhammed b. Ahmed el-Biruni, Tahkiku Ma Li'l Hind, TTK, Ankara 2015.
3. Sayılı, Aydın, "Doğumunun 1000. Yılında Beyrûni", *Beyrûni'ye Armağan*, Türk Tarih Kurumu, Ankara 1974.
4. Çubukçu, İ. A. "Bîrûni", Ankara Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi, c. 27, s. 89-95.
5. Ebu Reyhan Muhammed b. Ahmed el-Biruni, Tahdidü Nihayati'l Emakin, TTK, Ankara 2013.
6. Ebu Reyhan el-Biruni, Maziden Kalanlar (El-Asar el-Bakiye), Selenge, İstanbul 2011.
7. Günay Tümer, "Bîrûni", *Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi*. c. 6, s. 206-215. İstanbul 2000.
8. Esin Kahya-H. Gazi Topdemir, "İlk Müslüman Türk Devletlerinde Bilim", *Genel Türk Tarihi*, C. 5, Yeni Türkiye yay. , Ankara 2002.
9. Tümer, Günay, *Bîrûni'ye Göre Dinler ve Dinler Tarihi*, Diyanet İşleri Başkanlığı Yay., Ankara 1986.
10. Rosenthal Franz, "Beyruni'nin Bilgi Kuramı ve Yöntemiyle İlgili Bazı Ön Varsayımlar Üzerine", *Beyruniye Armağan*, T. T. K yay. , Ankara 1961, s. 159-165.
11. Togan, "Bîrûni", *MEB İslâm Ansiklopedisi.*, c. 2, Ankara 1961, s. 635-636.
12. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar V Birinchi kitob. – Toshkent. 1973.
13. Lan Whitaker, "Bîrûni Çalışmalarının Bugünkü Durumu: Bir İnceleme ve Bibliyografya", *Uludağ Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi*, c. 20, S. 1, ss. 259-294.
14. Togan, A. Zeki Velidî, *Tarihte Usûl*, Enderun Kitabevi, İstanbul, 1981.
15. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar II. – Toshkent. 1965.
16. Togan, A. Zeki Velidî, *Umumi Türk Tarihine Giriş*, İstanbul 1970.

FOLKLORSHUNOSLIK VA ETNOGRAFIYADA XALFACHILIK AN'ANALARINI QIYOSIY O'RGANISH MASALALARI

Guzal Razzakova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

"Fakultetlararo ijtimoiy fanlar" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qadimda yashab o'tgan turli xalqlar madaniyati va san'ati haqida hamda ularning farqi va shakllari haqida ma'lumot beradi. Xalfachilik san'ati turlari va ularning ijodi, usullari haqida, ular qo'llaydigan musiqa asboblari haqida fikr bildiradi.*

Kalit so'zlar – *xalfa, xalfachilik san'ati, yakka xalfalar, ansamblli xalfalar, qo'l soz, doirachi, og'zaki, yozm an'ana.*

Вопросы сравнительного изучения халфийских традиций в фольклоре и этнографии

Аннотация. *В данной статье представлены сведения о культуре и искусстве различных древних народов, их различиях и формах. Дает мнение о видах искусства халфалчиков и их творчестве, методах и используемых ими музыкальных инструментах.*

Ключевые слова — *халфа, искусство халфы, отдельныя халфы, ансамблевые халфы, почерк, круг, устная, письменная традиция.*

Kirish.

Ma'lumki, eng qadimgi davrlarda yashagan turli xalqlar madaniyati va san'atini bir-biridan keskin farq qiluvchi turlari hamda shakllari mavjud bo'lib, ularni ko'z bilan ko'rish yoki ilg'ash qiyin. Chunki, ibtidoiy odamlar hayotida moddiy-iqtisodiy jabhalaridan shakllanib kelayotgan madaniyat va san'at bevosita ularning turmush tarzi bilan bog'liq bo'lib, bularga ko'proq ularning ruhiy holati, kechinmalari hamda xo'jalik faoliyati katta ta'sir etgan.

Mavzuning rivojlanish darajasi. O'zbek xalq og'zaki badiiy ijodi nihoyatda xilma-xil bo'lib, janriy tarkibi jihatidan rang-barangdir. Shu bois uning ijodkorlari va ijrochilari ham turli nomlar bilan taladi. Masalan, Xorazmda xalq qo'shiqlari va epik asarlarni, ulardan olingan parchalar va ayrim termalarni kuylovchi ijodkorlarni xalfalar deb yuritiladi. Xalfachilik – Xorazm vohasida keng tarqalgan mahalliy og'zaki ijod namunalari maromiga yetkazib, ijro etuvchi ayollar san'ati.

Xalfachilik san'ati ikki turga bo'linadi: *ansamblli xalfalar* (xalfa yodog'i, sozi va raqqosa) va *yakka xalfalar* (xalfa kitobiy). Ansamblli xalfalar uch kishidan iborat bo'lib, *ustoz xalfa* (ayni vaqtda garmon (XIX asrda rus garmoni Xorazmda tarqalib, ommalashib ketgan va uni "qo'l soz" deyiladi) chaladi va qo'shiq aytadi), *doirachi* (qo'shiqlarga jo'r bo'ladi, ba'zan raqs tushadi) va *o'yinchilar* (raqs tushadi, qayroq bilan o'ynaydi, yetakchi xalfaga qo'shib, qo'shiq ham aytadi, ba'zan doira ham chaladi) birlashib, jamoani tashkil etadi. "Xalfa yodog'iy" to'y qo'shiqlari, lapar va yallalar aytsa, "xalfa dostonchi" xalq dostonlarini, ulardan olingan parchalar va doston terma-qo'shiqlarini, birgalikda o'zlari yaratgan yoki boshqa ijodkorlar asarlarini ijro etadilar. Yakka xalfalar doston, she'rlarni va termalarni cholg'usiz ijro etadilar. Ular dostonlarni yoddan – og'zaki yoki yozma an'anada, turli mavzudagi kitobdan yoqimli ohangda o'qiydilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Dastavval folklor fanining etnografiya bilan o'zaro prinsipial aloqalari masalalariga doir yondashuvlar folklorshunoslar K.V. Chistov¹ va B.N. Putilov² asarlarida ilmiy tadqiq etilgan. Etnografiya va folklor fanlarining o'zaro aloqadorligi xususiyatlariga K.V. Chistov quyidagicha ta'rif bergan: "Biz folklorning mustaqillikka bo'lgan huquqiga shubha qilish niyatimiz yo'q. U juda keng va ravshan mavzuga ega, ammo bu uning eng yaqin "qo'shnilari" va "qarindoshlari" - etnografiya va filologiya sohasidagi asosiy munosabatini o'zgartirmaydi. Folklorshunoslikning asosiy xususiyati - filologiya va etnografiya fanlari bilan bir vaqtning o'zida bog'liqdir, chunki har bir folklor hodisasi bir vaqtning o'zida ham "xalq hayoti" ham "og'zaki ijodkorlik" faktidir"³

Etnografiya fani har bir xalqning moddiy va ma'naviy madaniyati bilan bog'liq aspektlarni tadqiq etishdan iboratdir. Bundan tashqari, sovet davrida etnografiya fani o'z taraqqiyotining ma'lum bir bosqichlarida asosiy o'rganish obyekti – "etnos"⁴ tushunchasi mazmunidan biroz chetlashib, antropologiya fani tarkibidagi yangi tushuncha sifatida namoyon bo'lgan. Shuningdek, antropologiyaning asosiy tadqiqot usulini ham anglatgan.

Xalfalar mahalliy xalqning barcha to'y-hashamlarida, turli marosimlarda, ayollar yig'inlari va bayramlarda ishtirok etadilar, to'y va va boshqa marosimlarda ishtirok etib, ba'zi hollarda uni boshqaradilar, jumladan, nikoh to'ylarini "To'y muborak" yoki "To'y boshlovi" qo'shiqlari bilan ochib beradilar hamda "To'y javobi" bilan yakunlaydilar. Voha xalfalari orasida *xonish qilish, kuylarni mohirona ijro etish, g'azallarni kuyga solib o'qish, tinglovchilarni rom qilish, badihago'ylik* xalfachilikning o'ziga xos lokal xususiyatlaridan hisoblanadi. Xalfachilik jozibali va navqiron ayollar san'ati sifatida Xorazm vohasi (hozirgi kunda Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumani)da hozirgi kungacha keng davom etib kelmoqda. Xalfachilik namoyandalaridan Bibi shoir, Ojiza, Xonimjon, Onajon Safarova, Nazira Sobirova, Roziya Matniyoz qizi, Saodat Xudoyberganova, Poshsho Saidmamat qizi, Ambarjon Ro'zimetova, Anorjon Razzoqova va boshqa xalfalar voha an'anaviy xalfachiligiga o'zini hissasini qo'shganlardan hisoblanadi.

Xalfachilik nafaqat an'anaviy "ustoz-shogird", balki zamonaviy Xiva musiqa maktablari, Urganch va Ellikqal'a tumanlari san'at kollejlari, jumladan, Xivada tashkil etilgan "Xalfa" qizlar maktabi orqali o'zlashtirilmoqda. Shuningdek, xalfa ijrochilari tanlovi Xorazm va Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumanida "Nafosat bo'stonim manim" nomli festivali doirasida (2013-yildan) o'tkazilmoqda. Xorazmlik xalfalar o'z san'ati va ijrochilik mahoratlarini "Boysun bahori" Ochiq folklor festivali, "Asrlar sadosi" An'anaviy madaniyat festivali va "Sharq taronalari" Xalqaro musiqa festivallarida namoyish etib kelmoqdalar. Xalfachilik san'ati festivali an'anaviy tarzda Xiva shahrida o'tkazilib kelinmoqda.

¹ Chistov K. V. Severnorusskiye prichitaniya kak istochnik dlya izucheniya krestyanskoy semi X IX veka. - V kn.: Folklor i etnografiya: Svyazi folklor s drevnimi predstavleniyami i obryadami... - S. 131-143.; O'sha muallif. Tipologicheskiye problemy izucheniya vostochnoslavyanskogo svadebnogo obryada. - V kn.: Problemy tipologii v etnografii / AN SSSR, In-t etnografii... - S. 223-230.

² Putilov, B.N. Folklor i etnografiya Russkogo Severa... - 280 s; O'sha muallif. Metodologiya sravnitelno-istoricheskogo izucheniya folklor... - 244 s; O'sha muallif. Geroicheskiy epos i deystvitel'nost. - L.: "Nauka", 1988. - 233 s.

³ Chistov K.V. Folklor i etnografiya // Folklor i etnografiya. - S. 4.

⁴ Tishkov V.A. Ocherki teorii i politiki etnichnosti v Rossii / V.A. Tishkov. - M.: Russkiy mir, 1997. -532 c; O'sha muallif. Identichnost i kulturnye granitsy. Identichnost i konflikt v postsovet'skix gosudarstvax / V.A. Tishkov. - M.: Moskovskiy sentr Karnegi, 1997. - 488 s; Tishkov V.A., Shabayev Yu.P. Etnopolitologiya: politicheskiye funktsii etnichnosti: uchebnyy dlya vuzov / V.A. Tishkov, Yu.P. Shabayev. - M.: Izdatel'stvo MGU, 2011. - 376 s. Tishkov V.A., Shnirelman V.A. Etnichnost i religiya v sotsial'nykh konfliktax. - M.: Nauka, 2012. - 260 s.

O‘z o‘rnida shuni alohida qayd etish kerakki, xalfachilik qo‘shiqchilik san‘atidan alohida tur hisoblansa-da, biroq, u bevosita qo‘shiqchilik bilan uyg‘unlashib ketadi. O‘z o‘rnida ta’kidlash joizki, qadimgi qo‘shiqchilik san‘ati janrlari va shakllari rang-barang bo‘lib, ular ijtimoiy turmush, xalq an‘analari hamda marosimlari bilan bevosita bog‘liq holda, asosan madhiyalar, allalar, yig‘i, harbiy chaqiriqlar, ibodat qo‘shiqlari, tantanalar, shuningdek, bayram qo‘shiqlari tarzida namoyon bo‘lgan¹.

Tahlil va natijalar. ini tadqiq qilishdan iborat ekanligini alohida qayd etish joiz.

“Folklor” atamasi *inglizcha* (folk) va (lore) – “donolik” so‘zlaridan yasalgan bo‘lib, “*xalq donoligi*”, “*xalq donishmandligi*” ma’nolarini anglatadi. Mazkur atama birinchi marta 1846-yilda Vilyam Tomas tomonidan ilgari surilgan. Shundan boshlab ushbu termin xalqaro miqyosda ilmiy muomalada keng tarqaldi. Shunga qaramay, Angliya va AQSHda ushbu atama keng ma’noda xalq ijodiyotining barcha sohalari – xalq poeziyasi, nasri, musiqasi, raqs, rassomlik, o‘ymakorlik, diniy e’tiqod va urf-odatlarini ifodalasa, sobiq Sovet Ittifoqi davrida asosan, so‘z san‘ati hamda xalq og‘zaki poetik ijodi tushunchasini o‘zida aks ettirgan.

Ayniqsa, o‘zbek milliy musiqa san‘atining paydo bo‘lishi va rivojlanishini uning dastlabki bosqichlari ya’ni, millatning turli davrlardagi tarixida ham ko‘rish mumkin. Qolaversa, boshqa xalqlarda bo‘lgani kabi o‘zbek musiqa madaniyati ham turli milliy ohanglar nota yozuvi yoki shunga o‘xshash musiqiy belgi bilan ifodalana boshlaganiga qadar katta tarixiy yo‘lni bosib o‘tgan². “Xalq musiqasi” tushunchasi “musiq folklori”, xalq amaliy san‘atining boshqa turlari, chunonchi, o‘ymakorlik (yog‘och, ganch va mis o‘ymakorligi), kulolchilik, zargarlik, zardo‘zlik, kashtado‘zlik singarilar xalq amaliy san‘ati atamalari bilan ifodalanadi. Xalq raqsi san‘ati xoreografiya (grekcha, choreuo-xor jo‘rligida raqsga tushmoq va grapho-raqs harakatlarini maxsus belgilarda yozib olmoq) deb yuritiladi³.

Xulosa.

O‘zbek xalqining folklor janrlari juda xilma-xildir. Qolaversa, O‘zbekistonning har bir hududi o‘ziga xos folkloriga ega bo‘lib, viloyatlarning o‘ziga xosligi va betakrorligidan daraku beradi. Jumladan, Xorazm vohasining etnik joylashuvi, dunqarashi, san‘atsevarligi va urf-odatiga qarab folklor janrlari hamda uslublari turlichadir. Shuni inobatga olgan holda bugungi kunda oldimizda turgan vazifa mavzuni etnografik jihatidan o‘rganib, uning folklorshunoslik va etnologiyadagi nazariy jihatlar

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hamidov H. O‘zbek an‘anaviy qo‘shiqchilik madaniyati tarixi. - B. 8.
2. Imomov Q., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. Xalq poyetik asarlari. - Toshkent: O‘qituvchi, 1990. - B. 4.
3. Chistov K. V. Shimoliy rus marsiyalari X IX asr dehqon oilasini o‘rganish uchun manba sifatida. - Kitobda: Folklor va yetnografiya: Xalq og‘zaki ijodining qadimiy g‘oyalar va marosimlar bilan aloqalari ... - S. 131-143 ; O‘sha muallif. Sharqiy slavyan nikoh marosimini o‘rganishning tipologik muammolari. - Kitobda: Yetnografiyada tipologiya muammolari / SSSR Fanlar akademiyasi, Yetnografiya instituti ... - S. 223-230.
4. Putilov, B.N. Rossiya shimolidagi folklor va yetnografiya ... - 280 p.; O‘sha muallif. Xalq og‘zaki ijodini qiyosiy-tarixiy o‘rganish metodikasi... – 244 b.; O‘sha muallif. Qahramonlik yeposi va voqelik. - L. : "Nauka", 1988. - 233 b.
5. Chistov K.V. Folklor va yetnografiya // Folklor va yetnografiya. - 4-bet.
6. Tishkov V.A. Rossiyada yetnik millat nazariyasi va siyosati bo‘yicha insholar / V.A. Tishkov. - M. : Rus dunyosi, 1997. -532 s; O‘sha muallif. O‘ziga xoslik va madaniy chegaralar. Possovet davlatlaridagi o‘ziga xoslik va mojarolar / V.A. Tishkov. - M.: Karnegi Moskva markazi, 1997. - 488 b.; Tishkov V.A., Shabayev Yu.P. Yetnopolitologiya: yetniklikning siyosiy funksiyalari: universitetlar uchun darslik / V.A. Tishkov, Yu.P. Shabayev. - M. : Moskva davlat universiteti nashriyoti, 2011. - 376 p. Tishkov V.A., Shnirelman V.A. Ijtimoiy mojarolarda yetnik va din. – M.: Nauka, 2012. – 260 b.

¹ Hamidov H. O‘zbek an‘anaviy qo‘shiqchilik madaniyati tarixi. – B. 8.

² Hamidov H. O‘zbek an‘anaviy qo‘shiqchilik madaniyati tarixi... – B. 8.

³ Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. Xalq og‘zaki poetik ijodi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1990. – B. 4.

Abdullayev Ikram Iskandarovich, Ruzmetov Dilshod Ruzimboyevich.....	8-11
ABU RAYHON BERUNIY VA “DORUL HIKMA VAL MAORIF” – XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI ALLOMALARINING JAHON ILM-FANI RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI Nodira Mustafoyeva, Raufjon Mahmudov	12-17
ВКЛАД БИРУНИ И ИБН СИНА В ФОРМИРОВАНИИ МЕСТНОЙ АРХИТЕКТУРЫ.. B.S.Рахмонов.....	17-21
SAYYORAMIZ QIYOFASINI KASHF ETGAN DAHO Utepova Genjexan Baltabaevna, A.Uzaqbaev Yuldasheva	22-25
BERUNIY ASARLARIDA QADIMGI ERON VA FORSLAR MADANIYATI. Kuranbayeva Umida Sultannazarovna	25-30
BUYUK ALLOMALARIMIZ ABU RAYXON BERUNIY VA IBN SINOLARNING SIVILIZATSIYA TARIXIDAGI ROLI Xalimbetov Yusup Masharipovich, Yuldashev Soatboy Jiyanboyevich, Ibragimova Elnara Farmanovna.....	31-34
BERUNIYNING HINDISTON ASARI – TARIXIY ETNOGRAFIK ASAR SIFATIDA Tadjiyeva Feruza Jumabayevna.....	35-36
HISTORICAL CONDITIONS OF THE FORMATION OF BERUNI’S SCIENTIFIC AND PHILOSOPHICAL VIEWS. Yuldasheva Saodat Mamasakhatovna, Mukhammadova Zebokhon Zakhid.....	37-39
INTERPRETATION OF PSYCHODIAGNOSTIC PROGNOSIS IN THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ABU RAYHAN BERUNI Yuldasheva Saodat Mamasakhatovna,	39-40
ABU RAYHON BERUNIY TAFAKKURLARINI O‘RGANISH (BERUNIY TAVALLUDINING 1045 YILLIGIGA BAG‘ISHLANGAN QOBUL XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI HAQIDA), Azizullah Arol. O‘lmasbek Xo‘jayev.....	41-48
ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA QO‘LLANILGAN METODOLOGIYANING MUHIM XUSUSIYATLARI. Mamadaminov Muhridin.....	48-52
FOLKLORSHUNOSLIK VA ETNOGRAFIYADA XALFACHILIK AN‘ANALARINI QIYOSIY O‘RGANISH MASALALARI Guzal Razzakova.....	52-54
ADABIY PARALLELNING JANRIY XUSUSIYATLARI. Teshayeva Gulnoza Jamshidovna	55-58
RELIGIOUS AND PHILOSOPHICAL IDEAS OF ABU RAYHAN BERUNI. Soatboyeva Sevinchoy.....	58-59
ABU RAYHON BERUNIYNING ILMIY MEROSLARI. Bozorova Aziza, Sayfullayeva Gulhayo.....	59-60
BERUNIYNING TABIIY-ILMIY QARASHLARI G‘ARB OLIMLARI TALQINIDA Otajonov G‘ayratjon Umarovich	60-62
ULUG‘ BOBOKALONIMIZ ABU RAYHON BERUNIYNING ILMIY MEROSINI O‘RGANISH Mambetnazarov Miraziz	62-64
ABU RAYHON BERUNIY HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATI. Ro‘zmetov Shuhratbek Quronboyevich	64-66
ABU RAYHON BERUNIYNING "QADIMGI XALQLARDAN QOLGAN YODGORLIKLAR ASARI TARIXIY MANBA SIFATIDA. Rustamova Munisa Umid qizi	66-67
2-SHO‘BA. ABU RAYHON BERUNIY YASHAGAN DAVR ADABIY MUHITI	
ABU RAYHON BERUNIYNING IJTIMOYIY-SIYOSIY QARASHLARI. Otamuratov Sadulla Otamuradovich	67-69
ABU RAYXON BERUNIYNING MA’NAVIY-AXLOQIY G‘OYALARI. Raximova M.Z.....	69-71
O‘ZBEKISTON RANG TASVIRIDA BERUNIY OBRAZINI YARATISH TAJRIBALARI Imamov Azizxon Avazxanovich.....	71-75
ABU RAYHON BERUNIYNING PEDAGOGIK TA‘LIMOTIDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARI. Akram O‘tayev.....	76-77